



Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!



1913-yil aprel oyidan chiqan shaxsiy gazeta



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

2023-yil 20-may, shanba,  
60 (23.781)-son

KUN  
HIKMATI

Murosa -  
madaniyatlichkeitkina  
emas,  
manfaatlarning mos  
kelishi ham



YTTB Samarqand anjumani:

## ASOSIY E'TIBOR "YASHIL" IQTISODIYOTGA QARATILADI

16-18-may kunlari Samarqanda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 32-yillik yig'ilishi o'tkazildi.

Sammit ishida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti, Yevropa Komissiyasi vitse-prezidenti, YTTB Boshqaruvchilar kengashi raisi, xorijiy hukumatlar, yetakchi transmiliy korporatsiyalar va sanoat xoldinglari, xalqaro moliya institutlari va banklar rahbarlari, shuningdek, dunyoning 70 mamlakatidan iqtisodiyot, investitsiya, moliya, innovatsiya sohasi ekspertlari va tahilchilar, fuqarolik jamiyatni faoliyati, ommaviy axborot vositalari xodimlari – jami 2,5 mingdan ziyod ishtirokchi qatnashdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17-may kuni Boshqaruvchilar kengashining yig'ilishi ishtirok etdi va nutq so'zladı.

Davlatimiz rahbari olti yil muqaddam boshlagan qat'iy islohotlarimiz natijasida mamlakatimizning qiyofasi butunlay o'zgarib, dunyoga keng oshilayotgani, bugun Yangi O'zbekiston barcha sohalarda xalqaro hamkorlik uchun tayyorligini ta'kidladi.

Xalqaro anjumanning uchinchi kuni ham tomonlar uchun birdek manfaatlari jihatlarni nazarda tutgan qator tadbirlar o'tkazildi.

Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, respublikamiz iqtisodiyotini yanada yuksaltirishga xizmat qiluvchi "O'zbekiston kapital bozorining rivojlanishi", "O'zbekiston banklari transformatsiyasi va banklarimizni xususiyashtirish jarayoni" sessiyalari mutaxassislarda katta qiziqish uyg'otdi.

Boshqaruvchilar kengashi majlisini yakunlari bo'yicha o'tkazilgan matbuot anjumanida YTTB prezidenti Odil Reno-Basso xonim Samarqand anjumani yuqori saviyada tashkil etilganini yuk-

sak baholab, buning uchun O'zbekiston rahbariyatiga minnatdorlik bildirdi.

– O'tgan yilgi faoliyatimiz sarhisobida dunyo bo'ylab mamlakatlarga rekord darajada investitsiya kiritganimiz ko'rindi, – dedi Odil Reno-Basso. – Ayniqsa, energetika, "yashil" iqtisodiyot, oziqovqat xavfsizligi yo'nalishlari ajratgan sarmoyamiz salmoqli bo'ldi. Kelgusida ham ushbu yo'nalishlar ustuvorligi saqlab qolinadi. Iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash uchun investitsiyaning 50 foizi "yashil" iqtisodiyotga yo'nalitiriladi.

Samarqand mezbonlik qilgan Boshqaruvchilar kengashi yig'ilishi doirasidagi barcha uchrashuv, sessiya va munozaralar muvaffaqiyatlari o'tди. Boshqaruvchilar kengashi bankimiz tarixidagi eng salmoqli kelishuvlar jamlanmasini imzoladi. Bu hujjatlar biz bimal ishlayotgan va tashqi hamkorlarim hisoblangan davlatlarga tegishli uch asosiy yo'nalishni qamrab oldi.

Umuman, uch kun davomida Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankingin 32-yillik yig'ilishi doirasida o'tkazilgan elikkidan ziyod tadbirda YTTB ishtirokida amalga oshirilayotgan loyiylar hamda kelgusi vazifalar, boshqa xalqaro tashkilot va tuzilmalar bilan hamkorlik, dunyodagi seoyisiosiy vaziyatdan kelib chiqib, mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanтиrish, fuqarolik jamiyatni institutlari rolini oshirish kabi muhim masalalar muhokama etildi. O'zbekistonda hisoblangan mahalla institutida bu tajriba o'samarasini beradi. Qolaversa, markazda ish beruvchilarning talabi asosida yo'nalishlar tashkil etilayotgani e'tiborli. Shu bilan

## IQTISODIY HAMKORLIK KENGAYADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 18-19-may kunlari Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifsi chog'ida viloyat hokimi Erkinjon Turdimov Shensi provinsiyasi gubernatori bilan Shensi va Samarqand viloyatining besh yilga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorligi bo'yicha bitimni imzoladi.

Viloyatimiz Xitoyning Shensi provinsiyasi bilan birodarlashgan hudud maqomida iqtisodiyot, madaniyat, turizm, ilm-fan sohalarida hamkorlik aloqalarini yo'lg'a qo'ygan. Bu munosabatlar keyingi yillarda ancha rivojlandi. Kelgusi besh yillikka mo'ljallangan bitim esa aloqalarni yangi bosqichda davom ettirishga asos bo'ladi.



## Xalqaro forum ishtirokchilari qadim shaharda

18-may kuni poytaxtimizda o'tkazilgan "Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ilg'or tajribalarni hayotga tatbiq etish" mavzusidagi II Xalqaro forumi qatnashchilari Samarqandda bo'ldi.

Viloyatda kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishitirish maqsadida forum ishtirokchilari uchun Samarqand shahridagi "Ishta Marhamat" monomarkaziga sayohat tashkil etildi. Markazda kasb-hunar o'rganuvchilar uchun yaratilgan sharoitlar delegatsiya a'zolarida katta qiziqish uyg'otdi.

– Qisqa muddatda ishsiz aholiga, ayniqsa, xotin-qizlarga hunar o'rgatib, ish bilan ta'minlashda bu kabi markazlar faoliyati juda muhim, – deydi pokistonlik ekspert Zulfiqor Ahmad. – Xususan, mamlakatingizda mavjud, dunyodagi noyob tuzilmalardan hisoblangan mahalla institutida bu tajriba o'samarasini beradi. Qolaversa, markazda ish beruvchilarning talabi asosida yo'nalishlar tashkil etilayotgani e'tiborli. Shu bilan

birga, sohaning bugungi muhim bir talabini ham aytib o'tishim kerak. Bugun har bir sohada texnologiyalarning o'rni ortib boryapti. Kasb-hunarga o'qitishda ham aynan mana shu jihatga ko'proq e'tibor qaratish lozim, deb o'layman.

Muloqot davomida xalqaro ekspertlar markaz o'qituvchilari bilan o'z tajribalarini o'rtoqlashdi. Markaz tinglovchilar sohaning yetut mutaxassislaridan maslahatlar oldi.

Delegatsiya a'zolari shuningdek, Konigil turizm qishlog'ida bo'lib, bu yerdagi qo'l mehnatiga asoslangan qadimiy hunarmandchilik ishlari bilan tanishdi, "Ipak yo'li" xalqaro turizm markazi hamda qadimiy obidalarni tomosha qildi.

Sulaymon MARDIYEV,  
Alisher ISROILOV (surat).



Indallosini  
aytganda...

Ismoil SAIFNAZAROV,  
falsafa fanlari doktori,  
professor:



- Bugun Uchinchi Renaissance poydevorini barpo etishni maqsad qildik.  
Ma'rifatli insonga ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti asosini ilm-fan, ta'lim-tarbiya, san'at, adabiyot, yangi texnologiya, innovatsiyalar tashkil etadi. Ilm-fanni esa, albatta, o'qituvchi, ustoz o'rnatadi. Ta'lim-tarbiya ishlarni yugori darajaga ko'tarmoqchi bo'lsak, birinchi navbatda, muallimlarning ijtimoiy maqomini ko'tarishimiz kerak.

## Okrug saylov komissiyalari tarkibi tasdiqlandi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2023-yil 19-maydagi qarori bilan muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalarining shaxsiy tarkibi tasdiqlandi.

Jumladan, viloyatimiz chegarasi doirasida tuzilgan 7-Samarqand okrug komissiyasi tarkibi quyidagicha:

### RAISI

Muhammadiev Xo'jaqul Otayevich - Samarqand davlat birlashgan tarixiy, me'moriy va badiiy muzey-qo'rionasi bosh direktori

### RAISINING O'RINBOSARI

Yakubjonova Dilfuza Qodirovna - Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali o'quv ishlari bo'yicha prorektori

### KOTIBI

Toshniyozov Otabeck Polvonovich - "Kamalak invest tekstil" mas'uliyati cheklangan jamiyatni paxta to'qimachilik klasteri yuridik bo'limi boshlig'i

### A'ZOLARI

Husanov Diyor Sheraliyevich - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning Samarqand viloyati mintaqaviy vakili

Hakimov Umid Akobirovich - "Hunarmandlar" uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig'i

Negmatova Shaxzoda Shuhratovna - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha birinchi prorektori

Boboyev Sarvar Boltayevich - Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'inining o'rincosari

Nazarov Sanjar Nasreddinovich - viloyat "Toza hudud" DUK rahbari

Sultonov To'qinjon Ibragimovich - "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining Samarqand filiali direktori

Mo'minova Gulruk Komilovna - viloyat "Zarafshon" va "Samarkandskiy vestnik" gazetalari birlashgan tahririyanati maxsus muxbiri

Ashurov Shahobiddin Saidovich - Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy ishlari bo'yicha prorektori

Yarmuxamedova Nargiza Anvarovna - Samarqand davlat tibbiyot instituti o'quv ishlari bo'yicha prorektori

Kenjayeva Nargiza Quvvatovna - viloyat nar-kologiya dispanseri bosh shifokori

Gaffarova Zilola Hamidovna - aksiyadorlik tijorat "Xalq banki"ning viloyat filiali boshlig'inining o'rincosari

Oqbo'tayev Oybek Xolmuratovich - viloyat iqtisiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rincosari

O'rroqova Madina Toshpo'latovna - Samarqand davlat veterinariya meditsinasи, chorvachilik va bioteknologiyalar universiteti qoshidagi akademik litsey direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rincosari

Rustamov Latif Botirovich - viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishthalik va jamaot salomatligi boshqarmasi boshlig'inining o'rincosari

Konkeliyeva Feruza Musayeva - "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi viloyat bo'limi raisi

O'rboleyev Bekzod Xalibayevich - viloyat kasa uyushmalari tashkilotlari birlashmasi raisining o'rincosari

Saidmurodova Nargiza O'ktamovna - viloyat axborot-kutubxonasi markazi direktori o'rincosari

Shukurova Nafosat Isomiddin qizi - Samarqand tumanidagi 1-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

**↓ Deputat minbari**

Bugun yurtimizdag'i iqtisodiy islohotlar "Tadbirkor boy bo'lsa, xalq ham, davlat ham boy bo'la'di", degan shior ostida tashkil etilmoqda. Shu sabab kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalişlaridan biriga aylandi. Bu bilan minglab yangi ish o'rnlari tashkil qilinib, minglab oilalarga baraka kirmoqda. Ya'ni, tadbirkorlikka sharoit yaratib, odamlar bandligini ta'minlash hayotiy zaruratga aylandi.

## Tadbirkorlar uchun qulaylik

Prezidentimiz tomonidan o'tgan yili 30 dekabrda imzolangan "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. Chunki hujjatga muvofiq, respublikaning barcha tuman (shahar)lari 5 ta toifaga ajratildi. Soliq imtiyozlari va subsidiyalar ayni toifadan kelib chiqib belgilanmoqda.

Xususan, joriy yilning 1-yanvaridan 2026-yilning 1-yanvariga qadar soliq solishning quyidagi tabaqalashirilgan tartibi joriy etildi:

5-toifadagi tumanlarda ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlar (yirik soliq to'lovchilar, doimiy muassasa, budget tashkiloti va davlat korxonasi, us-tav jamg'armasi (kapitali) da davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq miqdorda bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) foyda soliq'i, aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliqni, shuningdek, mol-mulkiga solinadigan soliq va yer soliq'ini mazkur soliqlar bo'yicha hisoblanigan summaning 1 foizi miqdoridagi soliq stavkalari bo'yicha to'laydi.

Shuningdek, qayd qilingan toifadagi tumanlarda ro'yxatdan o'tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan YaTTlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining qat'iy belgilangan summalarini to'lashdan ozod qilinadi.

4-toifadagi tumanlarda tadbirkorlik subyektlari (yirik soliq to'lovchilar, doimiy muassasa, budget tashkiloti

va davlat korxonasi, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq miqdorda bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) uchun aylanmadan olinadigan soliqning bazaeviy soliq stavkasi 3 foiz etib belgilandi.

Ma'lumot o'rniда aytish lozim, ixtisoslashuvni hamda kichik biznes uchun mavjud sharotidan kelib chiqib, viloyatimizda Kattaqo'rg'on, Nurobod, Paxtachi, Payariq tumanlari 4-toifaga, Qo'shabot tumani esa 5-toifaga ajratiladi.

Farmonning yana bir muhim jihat shundaki, unda xalq noiblariga tadbirkorlar uchun yengilklarni ko'paytirish imkonni berildi. Xususan, Jo'qorg'i Kenges va xalq deputatlari viloyat Kengashlari 4-toifadagi tumanlar bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer soliq'i bo'yicha Soliq kodeksi bilan belgilangan eng kam qiymatlarga 0,3 gacha;

YaTT uchun qat'iy belgilangan miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliq'i bo'yicha 0,5 gacha kamaytiruvchi koeffisient kirish huquqiga ega.

Asosysi, 4 va 5-toifadagi hududlar uchun tadbirkorlik sohasida litsenziya va ruxsatnomalar olishda davlat boji ikki baravarga pasaytirildi.

Bu chora-tadbirlar ishtiyoqmand kishilarga mammalakatning istalgan hududida ishbalarmonlik qobilayitini namoyon etishi uchun keng imkoniyat berishi, shubhasiz.

**B.SHODIYEV,**  
xalq deputatlari Narpay tumani Kengashi deputati.

## DARAXTNI KESISH MUMKIN, FAQAT...

Guvohi bo'lyapmizki, moratoriylar va boshqa cheklov larga qaramay, joylarda daraxtlarni noqonuniy kesish holatlari davom etmoqda. Hatto ayrim "uddaburon"lar javobgarlikdan qochishga urinib, daraxtlarning tanasiga turli yo'llar bilan zarar yetkazish orqali ularni nobud qilishgacha borishyapti. Xo'sh, bu bilan jazoni chetlab o'tish mumkinmi, umuman, tabiatga yetkazilgan zarar qanday aniqlanadi? Tabiat resurslari vazirligi viloyat boshqarmasi mutaxassis Sherali Iskandarov shu va boshqa savollarimizga javob berdi.

— Viloyatimizda daraxtlarni noqonuniy kesish bilan bog'liq holatlар ko'paygани rostmi? Qonunbuzalarini javobgarlikka torish masalasi qanday bo'lyapti?

— Haqiqatan ham keyingi vaqtarda ijtimoiy tarmoqlarda ayrim fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining daraxtlarga shikast yetkazishi, ularni noqonuniy kesish bilan bog'liq xatti-harakatlari haqidagi xabarlar ko'paydi. Bu birinchi navbatda fuqarolarning tabiatni asrashga bo'lgan mas'uliyati oshganidan darak bersa, ikkinchidan, yashil florani zararlash holatlari organidan ogohlantiradi. Raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, shu yilning 1-mayiga qadar inspektorlarimiz tomonidan 188 ta qonunbuzarlik holati bo'yicha jami 312 million 300 ming so'm jarima belgilangan. O'tgan yil davomida bu 461 tani tashkil etib, qonunbuzarlarga jami 836 million so'mdan ortiq jarima qo'llanilgan edi.

Aksariyat qonunbuzalar o'z qilmishini turli yo'llar bilan yashirishga urunayotgani ham bor gap. O'rganishlar davomida ba'zi tadbirkorlik subyektlari o'zlariga ajratilgan yerni avval baland devor bilan o'rab, keyin undagi daraxtlarni kesayotgani yoki ularning ildiziga neft mahsulotlarini quyayotgani aniqlanmoqda. Ayrimalar esa ishni tunda bitirishga urinadi. Xususan, Samarcand shahri Spitamen shohko'chasi dasturlashtirish tadbirkor piyodalar yo'lagidagi besh tup eldar qaraq'ayini tungi paytda kesib olib, uning tag qismini yashirish maqsadida ustidan beton plitalarni yotqizganligi ma'lum bo'ldi. Kimyogarlar shaharchasida esa fuqaro eski bolalar bog'chasi hududidagi uch tup noyob klyon daraxting tomirlarini kesib, ularni tabib holda yiqligandek ko'rsatmoqchi bo'lgan. Albatta, qonunbuzarlikni bu taxlit yashirib bo'lmaydi, viloyatimizdagi har bir noyob daraxt hisobda turadi hamda ularning nobud bo'lishi belgilangan tartibda o'rganiladi. Yuqoridaq holatlар ham bundan mustasno emas, aybdorlar javobgarlikka tortildi. Jumladan, uch tup noyob daraxting umriga zomin bo'lgan fuqarodan bazaviy hisoblash miqdorining 10 barobari miqdorida jarima hamda o'simlik dunyosiga yetkazilgan 34 million 500 ming so'm zarar undirildi.

— Aytaylik, men hovlimming atrofini obodonlashtirish uchun ko'chadagi 100 yillik qayrag'ochni kesdim. Menga qancha miqdorda jarima belgilanadi? Bu holatda ishimga xalaqit berayotgan daraxtni kesishning qonuniy asosi bormi?

— Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-fevraldagi 86-sonli qarori 15-ilovasiga asosan, jismoniy va yuridik shaxslar davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni kesishga ruxsatnomasi olish uchun yagona interaktiv davlat



— Sohaga oid axborotlarda "tabiatga yetkazilgan zarar", degan jumlanani ko'p o'qiyimiz. Ko'pchilikni qiziqtitirayotgan savol: bu zarar miqdori qanday aniqlanadi?

— Huquqbuzaqlik avvalo, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks bo'yicha ko'rib chiqilib, aybdorja jarima belgilanadi. Mazkur huquqbuzaqlik oqibatida tabiatga, o'simlik dunyosiga yetkazilgan zarar qiyamti esa Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustodagi 464-sonli qarori 4-ilovasiga asosan hisoblab chiqiladi. Bunda kesilgan, kundakov qilingan yoki shikastlanitirish daraxtning diametri, yoshi va qimmatiligi hisobga olinadi.

Bundan tashqari, boshqarma qoshida maxsus laboratoriya mavjud bo'lib, unda o'simlik dunyosi, suv, tuproq va shu kabi 18 turdagi ingedridlarning tahlil namunalari asosida o'rganishlar olib borilib, ularga yetkazilgan zarar durasiga aniqlanadi.

— Aytaq, men hovlimming atrofini obodonlashtirish uchun ko'chadagi 100 yillik qayrag'ochni kesdim. Menga qancha miqdorda jarima belgilanadi? Bu holatda ishimga xalaqit berayotgan daraxtni kesishning qonuniy asosi bormi?

— Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-fevraldagi 86-sonli qarori 15-ilovasiga asosan, jismoniy va yuridik shaxslar davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarni kesishga ruxsatnomasi olish uchun yagona interaktiv davlat

xizmatlari portalı orqali murojaat qilishlari lozim. Mazkur portal orqali elektron shaklda yo'llangan murojaatga asosan Tabiat resurslari vazirligi hududiy bo'limlari davlat inspektorlari joyiga chiqib, o'rganish ishlarni olib boradi hamda 5 ish kuni ichida portal orqali javob xatini taqdim etadi.

Agar siz hovlingiz atrofidagi 100 yillik qayrag'och daraxtni tegishli ruxsatnomasiz, noqonuniy kessangiz, sizga nisbatan MJtKning 79-moddasi 1-qismiga asosan mamuriy jarima qo'llaniladi. Shuningdek, ushuq qayrag'och sog'lon bo'lgan taqdirda, o'simlik dunyosiga yetkazilgan zarar hisoblanadi.

— Sanitar holatini yo'qotgan daraxt, deganda nimani tushunish kerak?

— Daraxtlarga shakl berish daraxtning havo, yorug'likdan yaxshi bahramand bo'lishi, ozuqa moddalarining hissili novdalarda to'planishiga xizmat qiladi. Shakl berilmagan daraxtlar sanitar holatini yo'qotgan hisoblanadi hamda ular kam yashaydi va kam hosil beradi. Daraxtga shakl berish joyning tuproq, iqlim sharoitlariga, uning turi va navining biologik xususiyatlariga qarab bajariladi.

— O'z hovlimdag'i daraxtlarni kesish uchun ham ruxsatnomasi olishim kerakmi?

— Vazirlar Mahkamasining 464-sonli qarori 1-bob, 2-bandiga muvofiq, agarda bu daraxt sizning xonadoningiz kadastr chizmasi hududida bo'lsa, ruxsatnomasi talab etilmaydi. Sababi, ushuq daraxt sizni shaxsий mulkingiz hisoblanadi.

— Qurilish uchun ishlatalidigan terak va boshqa shu kabi daraxtlarni kesish uchun-chi?

— Agar mazkur daraxtlar fuqaro yoki tadbirkorlik subyektingizning mulki hisoblanmasa hamda maxsus plantatsiyalarga ekmilgan bo'lsa, ruxsatnomasi olish zarur. Yuqoridaq holatlarda daraxtlarni kesish uchun ekologik nazorat idoralarining xulosasi talab etilmaydi.

— Men ko'chada daraxt kesilayotganiga guvoh bo'ldim, deylik. Bu haqda kimga va qanday xabar berishim kerak?

— Buning uchun eng avvalo, yashash hududingizdagi Tabiat resurslari vazirligi tuman, shahar bo'limlariga murojaat etish tavsisi etiladi. Shuningdek, fuqarolar boshqarmaning (66) 229-37-77 ishonch telefon yoki telegram (<https://t.me/econewssamarqand>) kanalidagi bot orqali murojaat qilib, qonunbuzarlik haqida xabar berishlari mumkin. Murojaatlar qisqa vaqt ichida ko'rib chiqilib, fuqaroga natijasi ma'lum qilinadi.

Asqar BAROTOV suhbatlashdi.

### BU FAKT!

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilning 1-yanvar holatiga viloyatimiz aholisining kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 73,7 yoshni tashkil etган.

Bu erkaklar uchun 71,3 yoshga, ayollar uchun 76,1 yoshga teng. Shahar joylari 75,4 yosh, qishloq joylari uchun kutilayotgan o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 72,0 yoshni ko'rsatmoqda.

## Ish beruvchimisiz?

Xodimingiz xavfsizligini ta'minlang!

Yurtimizda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta'minlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu yangi Mehnat kodeksi va "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunda qat'iy belgilangan.

Mehnatni muhofaza qilish sohasida davlat siyosati korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini natijalariga nisbatan xodimning hayoti va sog'lig'i ustuvorligi, korxonalarida sog'lon va xavfsiz mehnat shart-sharoitlarini yaratish, ishlovchilarining manfaatlarini ijtimoiy himoyalash prinsiplariga asoslanadi. Ishlab chiqarishda sodir bo'layotgan baxtsiz hodisalarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari barchaga ayon. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa bir umr nogiron bo'lib qolgan yoki halok bo'lgan kishi oilasi uchungina emas, jamiyat uchun ham fojadir.

Afsuski, ayrim korxonalar, tadbirkorlik subyektlari rahbarlari Mehnat kodeksining 82-moddasiga asosan xodimni ishga qabul qilishda buyruq rasmiylashtirmasdan, xodim bilan mehnat shartnomasi tuzmasdan yollanma ishchi sifatida og'zaki keli-shuv asosida ishlatib kelmoqda. Korxona va tashkilotlarda 50 nafr ishchi xodim bo'lsa, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuning 25-moddasida mehnatni muhofaza qilish vazifalari bajarilishiga muhandis - texnik xodim mas'ul etib tayinlanishi ko'rsatib o'tilgan bo'lsa-da, ayni kunda bu talab aksariyat ish beruvchilar tomonidan bajarilmaydi. Ishchilar maxsus kiyim-bosh va moyabzal hamda boshqa shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan bepu ta'minlanmayapti.

Ish beruvchi tomonidan o'n sakkiz yoshga to'imagan shaxslar, pensiya yoshidagilar, nogironligi bo'lgan shaxslar, shuningdeki ishlab chiqarishda zararli sharoitda



ishlayotgan xodimlar majburiy tartibda tibbiy ko'rikdan o'tishi belgilangan bo'lishi qaramasdan, bunga amal qilinmayotgan holatlardan uchrab turibdi. Shuningdek, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuning 25-moddasida ishchi-xodimlar ishga qabul qilinganda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha kirish yo'riqnomasi va texnika xavfsizligi bo'yicha o'qitilishi ko'rsatib o'tilgan bo'lsa-da, korxonalar rahbarlari va xususiy tadbirkorlar tomonidan bu ishga e'tiborsizlik bilan qaralmoqda. Natijada ishchilarning bilim darajasi yetarli emasligi, korxonada jihozlar, mexanizm, moslama, ularning tafsifi va xususiyatlari, ehtiomi bor xavflar, ishning xavfsiz metodlari va usullari bilan tanishmagani oqibatida o'lim bilan tugagan yoki kelajakda nogiron bo'lib qolish kabi baxtsiz hodisalar sodir bo'lmoida.

Kezi kelganda shuni aytmoqchimizki, joriy yilda dasturlarga kiritilgan loyiha obyektlarida ish olib borayotgan xususiy korxona va tadbirkorlar qurilishda ishlayotgan ishchilariga mehnatni muhofaza qilish bo'yicha xavfsizligi mehnat sharoitlari yaratishi, maxsus kiyim-kechak bilan ta'minlashi, texnika xavfsizligi qoidalariga to'liq rivoj qilishi jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadi.

**Jonibek AZIMOV,**  
viloyat kambag'aliikni  
qisqartirish va bandlik bosh  
boshqarmasi davlat mehnat nazorat  
inspeksiyasi boshlig'i.

## Gulistonda 28 OILA SAQLAB QOLINDI



Lola Qurbonova mahalla faoli vazifasida ish boshlagani qadar muktabda psixolog bo'lib ishlagan. Shuning uchun bo'lsa kerak, ayollar bilan tez til topisha oldi. Natijada o'tgan bir yil davomida 28 ta oila yajrimning oldi olindi.

- Mahallamizda o'tkazilgan o'rganish jarayonida turmushi buzilgan 32 oila mavjudligi aniqlandi, - deydi Lola opa. - Ba'zi oilalar ishtirokida bevosita psixologik treninglar tashkil qildim. Oila yajrim qadriyatlarini mustahkamlash ken-gashi ko'magi bilan 28 oilan yarashtirdik.

Shuningdek, mahallada yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmuni o'tkazishga alohida e'tibor qaratilyapti. Bir so'z bilan aytganda, hududda oilalar farovonligi, qishloqlar obodligi yo'lda keng ko'lamli ishlarni amaga oshiriyapti



## Dunyo olimlari yana Samarqandda jam bo'lleshadi

Joriy yilning 23-27-may kunlari Samarqand davlat universitetida "Nanofotonika, metamateriallar va fotovoltaika (ICNMP-2023)" nomli III xalqaro ilmiy konferensiya o'tkaziladi.

Fotonika va optik aloqa, optik tolali komponentlar fundamental tadqiqot yo'naliishi har qaysi mamlakat uchun muhim soha hisoblanadi. Bugun hayotimizning asosiy qismiga aylangan smartfonlar dan tortib noutbuklar, internet to'iqini, u orqali axborotlarni uzatish jarayoni mazkur soha bilan bog'iqliq, Nurlanish, uza-tish, modulyatsiya, signalarni qayta ishlash, almashtirish va kuchaytirish orqali fotonlar shaklida yorug'lik to'iqini ni hosil qilish hamda uning xususiyatlarini o'rganish orqali internet tezligini oshirish, ma'lumotlarni tez, sifati va ishonchli uzatish, raqamli tibbiyot kabi muhim tarmoqlarda samarali natijalarga erishish mumkin.

Ushbu xalqaro anjuman Samarcanda o'tkazilishi bejiz emas. Chunki Samarcand davlat universiteti Markaziy Osiyodagi eng qadimgi va yirik oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lib, uning tarixiy ildizlari Mirzo Ulug'bek davriga borib taqaladi. Uning yaratgan ilmiy maktabi jahon ilm ahli tomonidan e'tirof etilgan. Registon maydonidagi Mirzo Ulug'bek madrasasi Samarcand doril-fununining "beshigi"dir.

Joriy yilda universitet qoshi-da muhandislik fizikasi instituti tashkil qilinib, eng so'nggi zamonaevi asbob-uskunalar bilan ta'minlandi. Akademik A.Otaxo'jayev asos solgan optika va spektroskopiya kafedrasida 5 nafran doktori va professor, 9 nafran fan nomzodi, dotsentlar faoliyat yuridi. Kafedrada O'rta Osiyoda yagona bo'lgan "Optiklar ilmiy maktabi" ishlab turibdi. Mak-

tab olimlari 2 ta xalqaro, 1 ta respublika miqyosdag'i ilmiy loyihalarni amalga oshirishmoqda.

Anjumanda nanofotonika va plazmonika, yorug'likning qat-tiq jismilar bilan o'zaro ta'siri, fotonika uchun yangi materiallar, kvant kriptografiyasi kabi sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy mamlakatlar olimlarining ishlari tinglanadi. Shuningdek, yetakchi olimlarimiz fanning zamonaviy yo'naliishlari va yirik xalqaro loyihalarga yanada keng jalb etish, yutuq va muammolar bilan tanishish, turli mamlakatlar yetakchi olimlari bilan nanofotonika fanining dolzarb muammolarini muhokama qilishadi.

Mazkur anjuman O'rta Yer dengizi fundamental fizika instituti (Italya) va Moskva fizika va texnologiya (Rossiya) institutlari bilan hamkorlikda tashkil etilib, unda Xanchjou Vestlayk universiteti (Xitoy), Dallasdagi Texas universiteti (AQSH), Buyuk Britaniya, Italya, Janubiy Koreya, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Shvetsiya va Rossiya kabi 40 ga yaqin xorijiy mamlakatdan nanofotonika sohasidagi taniqli olim va mutaxassislar ishtiroy etadi.

Besh kun davom etadigan ushu xalqaro konferensiyyada nanofotonika va metamateriallar bo'yicha 150 ga yaqin ma'ruza tinglanib, fizikaning boshqa yo'naliishlari bo'yicha ko'plab masalalar muhokama qilinadi.

**Abduvohid JUMABOYEV,**  
SamDU optika va  
spektroskopiya  
kafedrasi professori.  
G'ayrat SHARIFOV,  
SamDU dotsenti.

Aholining ko'payishi nati-jasida donli ekinlar, jum-ladan, soya, marjumak, bug'doy, arpa, suli, yas-miq, loviya, no'xat, makka-jo'xori kabi ozuqaviy o'sim-liklarga talab ortmoqda.

Hozirgi kunda yurtimizda soya asosiy ekin sifatida foydalabin kelinmoqda. Soya ekishning maqbul vaqtini janubiy hududlarda 25-martdan 5-aprelgacha, markaziy hududlarda 1-15-aprel, shimoliy hududlarda esa 15-25-aprelgacha bo'lgan muddatlar hisoblanadi. Soyaning ertapishar navlarini may oyining o'tasigacha ekish mumkin. Takroriy ekin sifatida iyun oyida, boshqoli don ekinlari ning yig'im-termidan so'ng ekiladi.

**OIV infeksiyasi oqibatida kelib chiqqan kasallik dunyo xalqlari uchun jiddiy muammoga aylandi.**  
Uning ta'siri nafaqat sog'liqni saqlash tizimi, balki mamlakatning iqtisodiy va milliy xavfsizligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Aholining mehnatga qobiliyatli qismiga zarar yetkazib, sog'gom, bexavotir turmush kechirishiga to'siq bo'imoqda.



## Faollik muhim

Respublikamiz aholisi, ayniqsa, yoshlar orasida OIV infeksiyasi bilan zararlanishi kamaytirishda ularning faoliogi juda muhimdir. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasi tomonidan O'zbekiston Respublikasida odam immuniteti tanqisligi virusi infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurash bo'yicha yoshlar faolligida olib boriladigan tizimli targ'ibot tadbirleri konsepsiysi tasdiqlandi.

Konsepsiyaning asosiy maqsadi aholi, ayniqsa, yoshlar orasida OIV infeksiyasi tarqalishini kamaytirishdir. Unda yoshlarning OIV infeksiyasi bo'yicha tibbiy madaniyatini oshirish maqsadida faol yigit-qizlarni OIV infeksiyasi bo'yicha o'qitish ko'zda tutilgan. Aholi xabardorligini oshirish OIV infeksiyasini yuqtirib olish xavfi yuqori bo'lgan inyeksiyon giyovandar, rag'bat evaziga intim xizmat ko'rsatuvchi shaxslar va nolegal mehnat migrantlari orasida kasallik tarqalishini birmuncha kamaytirishga yordam beradi.

Keyingi vaqtarda mehnat migratsiyasidan qaytgan migrantlar orasida OIV infeksiyasi bilan hisobga olinish ko'rsatichi birmuncha oshgan. Shu sababli migratsiyadan qaytgan fuqarolarni o'z vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tkazish, OIVga tekshirish va ularning oila a'zolari o'tasida ham tushuntirish ishlari olib borishda yoshlar faolligi muhim.

Hozirgi vaqtida yoshlarning telefon va internet tarmog'i orqali ko'proq ma'lumot olishini e'tiborga olinish holda ijtimoiy tarmoqlarda OIV infeksiyasi xavfini muntazam yoritib boruuchi alohida saytlar faoliyatini yo'nga qo'yish kerak.

Shuningdek, OIV infeksiyasi ko'rsatkichi oshishiga sabab bo'lyotgan omillarni muntazam o'rganib, ushu sohada faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarning xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganishlari va ular bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib borishni yo'nga qo'yish maqsadga muvofiq.

**Baxtiyor ASLANOV,**  
Dildora AHMEDOVA,  
viloyat OITSga qarshi kurash markazi  
mutaxassislari.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lонlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### DA'VOLAR BO'LSA...

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiining 2013-yil 3-apreldagi 139-Q-soni qaroriga asosan "Harbiy savdo - Samarcand" davlat unitar korxonasi tugatilmoqda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e'tirozlar gazetada e'lon chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi.

**Korxonaning pochta manzili:** O'zbekiston Respublikasi Samarcand viloyati Samarcand shahri Spitamen shohko'chasi, 16-uy.

Korxonaning soliq to'laydigan identifikatsion raqami (STIR): 200714878.

\*\*\*

Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloyevich notarial idorasida marhum Xasanov Axmatga (2009-yil 6-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahmonov Sarvar Ne'matilloyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarcand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

\*\*\*

Samarcand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Nurmamedov Toshpulotga (2019-yil 2-iyun-

da vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarcand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Urusov Faxridin Radjabovichga (2014-yil 31-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumanı Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Zulfiqorov Azamat Muhibayevichga (2020-yil 18-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumanı Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Nurmamedov Toshpulotga (2019-yil 2-iyun-

## Soya qanday parvarishlanadi?

2023-yil hosili uchun viloyatimizda 10 ming hektar maydonda soya ekilishi rejalashtirilgan. Shundan Past Darg'om tumanida 1,7 ming hektar, Payariq va Kattaqq'or'g'on tumanlarda 1,250 ming hektar maydon soya yetishtirish uchun ajratilgan. Soyadan yuqori va sifatlari hosil olishda barcha agro-teknik tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish bilan bir qatorda ekinning zararli organizmlarga qarshi kurash tizimini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Birinchidan, yerga ekin ekishidan oldin ishlav berish, begona o'tlaridan tozalash, tekislash, yerni yumshatish, ekin uchun fosforli, kaliyli mineral o'g'ilarning yillik me'yorini ta'minlash kerak.


Ikkinci masala urug'lilikni ekishga tayorlash. Respublikamizdagi tuproq tarkipi soya o'simligiga mos tuga-nak bakteriyalarning shtamlari mavjud emasligi sababli soyani ekishdan avval albatta, bio'o'g'il (nitrogjin) bilan ishlav berish kerak. Aks holda, soyal ildizida biologik azot to'plash uchun tuga-naklar hosil bo'lmaydi.

Soyaning barcha navlarda ekilgan urug'larni tupoqning tabiiy namiga undirib olish eng yaxshi usul hisoblanadi. Agar soya urug'lari ekilgandan so'ng tupoqda namlik yetari bo'limasa, yengil urug' suvi beriladi.

Soya o'simligiga o'rgimchakkana, shira, oqqanot kabi so'ruvchi va kuzgi tunlam, ko'sak qurti kabi kemiruvchi zararkunandalar jiddiy zarar keltiradi.

O'simlikdagi zararkunanda va hasharotlarga qarshi kurashda uyg'unlashgan holda biologik va kimyoiy qarshi kurash choralar qo'llanilishi kerak.

**B.FAYZULLAYEV,**  
O'simliklar karantini va  
himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti  
Samarqand mintaqaviy filiali direktori.  
**Q.TURSUNOV,**  
filial kichik ilmiy xodimi.



## Fan olimpiadasi g'oliblari pul mukofoti oldi

16-17-may kunlari Farg'onan viloyati Quva tumanida fan olimpiadasining respublika bosqichi bo'lib o'tdi. O'zbek tili, qozoq tili, tojik tili, rus tili, qoraqalpoq tili, tarix va geografiya fanlaridan bo'lib o'tgan fan olimpiadasida Samarcand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi o'quvchilari Sevara Ergasheva birinchi, Sabina Dehqonova ikkinchi o'rinni qo'liga kiritdi.

- Qizlaridan zukkoli, tirishqolgi bilan tengdoshlaridan ajralib turadi, - dedi SamSI Akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Nasiba Ochilova. - Barcha fanlardan a'lo o'qishga harakat qilib, akademik litseyda tashkil etilgan ma'rifiy-madaniy tadbirlarda faol qatnashib keladi. Sevara va Sabina ingliz tilidan IELTS xalqaro sertifikatiga ham ega. Bilimga chanqoq bu qizlarimizning orzulari juda ko'p. Ular kelgusida o'z sohasining yetuk bilimdoni bo'lib, Vatanimiz ravnqaiga munosib hissa qo'shishni maqsad qilgan.

Respublika fan olimpiadasida birinchi o'rinni egallagan Sevara Ergasheva 396000 so'm, ikkinchi o'runga munosib deb topilgan Sabina Dehqonova 264000 so'm pul mukofoti hamda sertifikat bilan taqdirlandi.

**Madina EGAMOVA,**  
Ishtixon tumanidagi 31-umumta'lim  
maktabi o'qituvchisi.

## Til bilganga...

**Past Darg'om tumanidagi  
ixtisoslashtirilgan maktaba  
Prezident sovrini uchun  
o'tkazilayotgan "Xorijiy  
tillarni o'qitish bo'yicha eng  
yaxshi maktab" tanloving  
viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.**

Unda tuman, shahar bosqichlari da g'oliblarni qo'iga kirtgan 16 maktabdan 80 nafr o'quvchi ishtirok etdi. Tanlova o'quvchilarini ingliz tilidan tinglab tushunish, o'qish, leksik va grammatik kompetensiyalar hamda yozish bo'yicha o'zaro bellashdi.

Birinchi o'rinni Samarcand tumanidagi 10-umumta'lim maktabi o'quvchilarini qo'iga kirtgan bo'lsa, ikkinchi o'rinni Oqdaryo tumanidagi

45-umumta'lim maktabi jamoasi egalladi. Uchinchi o'rinni Toyloq tumanidagi 21-umumta'lim maktabi o'quvchilari jamoasiga nasib etdi.

Tanloving viloyat bosqichida birinchi o'rinni egallagan maktab 250 million so'm, ikkinchi o'rinni qo'iga kirtgan maktab 200 million so'm va uchinchi o'runga sazovor bo'lgan maktab 150 million so'm miqdorida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini bilan mukofotlanadi.

Umumiy natijalarga ko'ra, eng yuqori ball to'plagan maktab respublika bosqichiga yo'llanmani qo'iga kirtdi.

**Baxtigul QARSHIYEVA,**  
viloyat maktabgachasi  
muktobi ta'limi boshqarmasi  
matbuot kotibi.

**Manzil:** Samarcand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-B" uy.

\*\*\*

**BEKOR QILINADI**

Sotuvchi "TX" MCHJ direktori F.Xaydarov va sotib oluvchi Kurbanov Mardon Axadovichlar o'tasida "TX" MCHJga tegishli Samarcand shahri Cho'ponota maskani, O'zbektrakt ko'chasidagi "Samarcand Siyob savdo" UK hududida joylashgan 12-soni savdo do'konini binosi uchun "Ko'chmas mulk savdo xizmati" MCHJ Samarcand viloyat filialida 2011-yil 7-dekabrda to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazish yo'lli bilan tashkillashtirilgan savdoning 205-tonli bayonnomasi

## "Tahririyat - ijod ahlining hayot maktabi"



Obloqul Usmonqulov – 1938-yil 20-mayda Payariq tumanida tug'ilgan. Mehnat faoliyatini 1954-yilda tuman gazetasidan boshlab, "Lenin yo'li" (hozirgi "Zarafshon") gazetasi, radio, televideniya hamda respublika ommaviy axborot vositalarida ishlagan. 30 yil davomida O'zbekiston radiosining Samarqand viloyati bo'yicha muxbiri sifatida faoliyat ko'rsatgan. 1989-yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist" faxriy unvoni, 2013-yilda "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlangan. Yaqinda Obloqul boba tahririyatimizga kelib, o'zining bundan 55-60 yillar avvalgi gazetachilik bilan bog'liq xotiralarini aytib berdi. Quyida akademik shoir G'afur G'ulom bilan bog'liq xotirani o'qisiz. Fursatdan foydalanim, faxriy jurnalistni qutlug' 85 yoshi bilan qutlaymiz.

- 1964-yilda "Lenin yo'li" gazetasining o'n minginch yubiley soni chiqarilishida ishtirok etgandim, - deydi O.Usmonqulov. - Esimda, shu munosabat bilan tadbiriga poytaxt Toshkentdan, respublikamizning barcha viloyatlardan yozuvchi va shoirlar, olim va jurnalistlar taklif etilgandi. Tahririyatning har bir xodimiga ulardan intervyu olib, gazetada chiqarish topshirildi. Mening chekimga akademik shoir G'afur G'ulomning fikrlari yozib olishi tushdi.

1957-1962-yillarda Toshkentda O'zDUNing jurnalistika bo'limida tahsil olib yurgan chog'ima G'afur G'ulomni adabiy kecha va uchrashuvlarda ko'p bor ko'rib, she'rlarini eshitgan bo'lsam-da, daf'atan yuzma-yuz uchrashuvdan salobati bosib, ikkilanib goldim. G'afur aka muharrir xonasida telefonda kim bilandir so'zla-

shib turgan ekan, tortina-tortina ichkariga kirdim. "Assalomu alaykum!" deya o'zimni tanishtirib, maqsadimni aytdim.

- Shunaqami, - dedi kulib. - Nima de-sam ekan, "Lenin yo'li" gazetasi haqidagi fikrlarim "O'zbekiston madaniyat" gazetasining kechagi sonida boshilib chiqqan. Ana shu maqolamni gazetalaringga ko'chirib bosa qolinglar.

Shunday qildik. Yubiley tantanasi Samargand shahrining hozirgi Alisher Navoiy nomli markaziy istirohat bog'ining yozgi teatr binosida (hozirgi Yoshlar markazi binosi o'rnda) kechki payt boshlandi. Yubileyni viloyat partiya qo'mitasining birinchi kotibi Saidmahmud Usmonov ochdi. Yubiley munosabati bilan gazetaning bir guruh ijodiy xodimlari respublika Oliy Kengashi Prezidiumining faxriy yorilqlari bilan taqdirlanganini ma'lum qildi. Yig'il-

ganlar xushxabarni gulduros qarsaklar bilan qarshi olishdi.

Shundan so'ng "Lenin yo'li" gazetasi bosh muharriri Lutfilla Hamroyev gaza-taning 10000-soniga qadar bosib o'tgan ijodiy yo'li haqida gapirdi. Keyin tabriklar yangrardi. Birinchi bo'lib so'z G'afur G'ulomga berildi.

- Gazetachilik mening ijodiy o'sishim uchun universitet rolini o'ynagan, - dedi atoqli shoir g'urur va iftixor bilan. - 1928-yilda, "Qizil O'zbekiston" gazetasida ishlab yurgan chog'ima Samarcandga ko'chib keldim. Bu yerdagi jo'shqin ijod ahli bilan yaqindan tanishuv o'shandan boshlandi. "Lenin yo'li" gazetasi ko'p ijod ahliga beshik bo'ldi. Ularning keyingi avlodlaridan biri suyukli ukam Normurod Narzullayev bo'ladi.

G'afur aka shunday deya "Lenin

yo'li"ning o'sha kungi sonida boshilib chiqqan Normurod Narzullayevning "Ham shoirman, ham jurnalist", degan she'rini baland ovoz bilan o'qib berdi va yosh shoirni olqishlab, unga ijodiy parvoz tiladi.

- Bu gazeta, - dedi G'afur G'ulom, - yosh yozuvchilar, jurnalistlarni tarbiyalashda, ularning qalamini charxlashda, o'zlariga xos uslubini yaratish, adabiy tilga o'rgatishda hayot va mahorat maktabi bo'igan, bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi...

Ulug' shoirning o'sha e'tiroflari-ni xotirlar ekanman, o'zining 110 yillik tarixi davomida "Zarafshon" chindan ham ko'plab iqtidorli ijodkorlar uchun hayot maktabini o'tagani, ular qatorida o'zim ham borligimdan qalbim faxr-iftixor tuyg'ulariga to'jadi.



## Turkiston milliy kurashi tarixi



Har qanday milliy madaniyatning yuksalishida millatning buyuk o'tmishi bilan faxrlanishga xizmat qiladigan milliy ruh muhim ahamiyatiga ega. Ammo mustaqillikkacha bo'lgan davrda milliy tarixni milliy ruh bilan o'rghanish imkonni berilmadi, tariximizni bir taraflama, salbiy nuqtai nazardan o'rganib keldik. Xususan, milliy ozodlik harakati "bosmachilik harakati" deb baholangani bunga yaqqol misol. Turkistonda milliy ozodlik harakati ishtirokchilarining kurashi sovetlar tomonidan bosqinchilik harakati sifatida baholanib, ularga qarshi keskin kurash olib borildi, siyosiy qatag'on qilindi.

Ushbu harakatni milliy ozodlik kurashi sifatida yoritgan asarlardan biri Boymirza Haytingning 1997-yilda Turkiyada nashr qilingan "Bosmachilar: Turkiston milliy kurashi tarixi" nomli kitobidir. Asar tarixchi olim Rustambek Sham-sutdinov va Shahzodbek Boltabayevler tomonidan tarjima qilinib, nashr etildi.

Bugungi kunda qay bir mamlakatning taraqqiyot yo'li ilm-fan yutuqlariga asoslangan bo'lsa, o'sha mamlakat rivojanishda ilgarilab ket-ganining guvohimiz. Fan faoliyatini jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan ilmiy qonuniyatlarini ochib beradi. Jamiyat rivojiga xizmat qiladigan qonunlarni ochishda tarix fani muhim ahamiyatga ega. Tarix fani mavjud ijtimoiy muammolarni anglab olishi va ularni bartaraf etish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishi lozim. Tarixchilar buni milliy ruh bilan tarixiylik tamoyili asosida tahlil qilib, ularni keltirib chiqqargan sabablarni topishda va bartaraf

qilish borasida xulosalarini berishlari kerak.

Vatanimiz tarixini xolisona va haqqoniy yoritish, istiqlol va ozodlik uchun jonini tikkan ajodolari-mizning hayot yo'li – mardon-a kurashlari, taqdirlarini bilish, ang-lash, ular-

ning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy qiyofasini klash, bor haqiqatni adolat bilan avlodlarga yetka-zish muhim, shu bilan birga, sharifi va xayrli ishlardir.

Kitob muallifi Boymirza Hayit yuqorida atyilgan chigal damlarning guvohi va bevosita ishtirokchisi bo'lgan, shu jarayonlar ichida yashagan. Shu sababdan "Bosmachilar": Turkiston milliy kurashi tarixi" mamlakatimizning ya-qin o'tmishdag eng murakkab davri haqidagi qimmatli manba hisoblanadi.

I.SAIDOV,  
F.NABIYEV,  
SH.G'AFFOROV,  
Sharof Rashidov nomidagi  
SamDU professorlari.



Ushbu surat bundan 40 yil avval olingan. Unda "Lenin yo'li" (hozirgi "Zarafshon") gazetasining mohir harf teruvchi va musahhihlari - (chapdan) Sanoat Najmiddinova, Jamila Husainova, Mastura Bobojonova hamda Feruza Muhammadiyevlar aks ettirilgan.

Ular orasida Jamila Husainova yoshi ulug'ligi, qolaversa, ko'p yillik tajribasi bilan hamkasblariga har jihatdan o'rnak ko'rsatgan. 1963-yilden 1992-yilgacha avval harf teruvchi, so'ngra musahhi bo'lib ishlagan Jamila aya bugun tabarruk 85 yoshini qarshiladi. Onaxon hamon "Zarafshon"chi shogirdlariga o'z tajribalarini o'rgatib keladi.



## "Ikki asr odami"

Ham ustozlari, ham shogirdlari bilan faxrlanadigan pedagog, publisist, adabiyot olamida o'z ovoziga ega ijodkor To'Iqin Eshbekning "Ikki asr odami" asari o'quvchilar qo'liga yetib bordi. Aslida ushbu kitobdan o'rinn olgan hajviya va hikoyalar o'quvchilarga avvaldan tanish.

Xususan, to'plamdag'i "Askar yigit maktubi" sarlavhani hajviyasi "Tabassum" radiojurnalida va qator radiokanalarda efigra uzatilib, minglab tinglovchilarga zavq-shavq bag'ishlagan. "Hamnafaslar"

hangomasi haqida esa bunday deb bo'lmaydi. Sababi, unda ortda qolgan pandemiya davrida kishilarning una qanday amal qilgani, bitta tibbyot niqobini butun oila almashib taqqani, bu bilan ayrim kishilarning o'z sog'lig'iga befarq ekani hajvg'a olingan.

Shuningdek, to'plamdan o'rinn olgan "Madaniyatli "tan-beh", "Artist", "Yutuq kimniki?" kabi hajviyalarda aniq odamlar qiyofasini ko'rgandek bo'lasiz. "Yolg'onchining chin so'zi" hajviyasi muallii hayotda yolg'on-yashiq gaplar qanchalik urchib ketganini ba'zi obrazlar orqali mahorat bilan o'chib beradi. Muallit to'plam nomiga olib

chiqilgan "Ikki asr odami" hikoyasi da XX asrda ulg'ayib, XXI asrda yashayotgan ba'zi zamondoshlarining qiyofalarini o'z ko'zi bilan ko'rgan ikki darr manzaralarini "qiyosiy tahlii" etgandek tasvirlashga harakat qiladi. Bu voqealar ikki davni ham ko'rgan zamondoshlar uchun qiziqarli bo'lsa, yoshlar uchun "o'mishdan bir shingil" hikoyalari o'rniда o'tadi.

Kitobdagi hajviyalar To'qin Eshbekning achchiq gaplarni kuldirib aytishda o'ziga xos mahoratidan darak berib turadi. Ijdor hayot-dagi aijib voqe-a-hodisalarga hajvchi nigohi bilan boqib, o'quvchini ham fikrashga undaydi.

Barno NODIROVA, talaba.



## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

**20-MAY**  
**Obloqul USMON-QULOV** – 1938-yilda Payariq tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist. "El-yurt hurmati" ordeni sohibi.

**22-MAY**  
**O'Imas MAHMAT-MURODOV** – (1941-2016) Urgut tumanida tug'ilgan. Ko'p yillar mazkur tumanga rahbarlik qilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

**25-MAY**  
**Abdurashid JABBOROV** – 1950-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Biologiya fanlari doktori, professor.

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.


Navbatchi:

G.MO'MINOVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.

Internet ma'lumotlari asosida G.XOLDOROVA tayyorladi.



Sotuvda narxi kelishilgan holda

**MUASSIS:** Samarqand viloyati hokimligi

**Bosh muharrir:** Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 655 nusxada chop etildi. Buyurtma 271. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

**BO'LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

**Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00



**↓ "Zarafshon" gazetasi 110 yoshda**

**↓ O'qing, qiziq**

**BIOYOQILGI, VAKSINA, YOG'DULI O'SIMLIK**

"Tabak" nomi ostida kartoshka va ituzumdoshlar oilasiga kiruvchi pomidorning uzoq "qarindoshi" – Nicotiana tabacum o'simligi yashiringan. Afsonaga ko'ra, tamaki o'z nomini 1560-yilda Fransiyadagi qirollik saroyiga taqdim etgan fransuz elchisi Jan Nikot sharafiga oлган. Avvaliga yevropaliklar tamakidan manzarali va dorivor o'simlik sifatida foydalanishgan, keyin Amerika hindularidan o'rnat olib, barglarini cheka boshlashgan. Bugungi kunda Yevropada chekishdeq qadimiy antitamaki kampaniyalariga qaramay, uni global ishlab chiqarish mumkin bo'lgan juda ko'p yog' mavjud. Uni 20 dan ziyod mamlakat bezarar yoqilg'i sifatida tasdiqlagan. Atmosferaga CO2 chiqitini kamaytirish strategiyasida biyoqoqliq' faol targ'ib qilinmoqda. Avtotransport vositalarini qiyata tiklanadigan energiya manbalaridan olinadigan yoqilg'iga o'tkazish rejasidir. aviatsiya sanoati allaqachon tamaki moyiga qiziqish bildirgan.

**TAMAKI - ISSIQXONA GAZLARIKA QARSHI**

Bu o'simlik urug'lariida biodizel ishlab chiqarish mumkin bo'lgan juda ko'p yog' mavjud. Uni 20 dan ziyod mamlakat bezarar yoqilg'i sifatida tasdiqlagan. Atmosferaga CO2 chiqitini kamaytirish strategiyasida biyoqoqliq' faol targ'ib qilinmoqda. Avtotransport vositalarini qiyata tiklanadigan energiya manbalaridan olinadigan yoqilg'iga o'tkazish rejasidir. aviatsiya sanoati allaqachon tamaki moyiga qiziqish bildirgan.

**INSON KOLLAGENI**

Tamaki uchun genetik muhandislik texnikasi ham yaxshi rivojlangan bo'lib, barglaridagi eriydigan oqsillar miqdori qurug vaznda 10 foizga etishi mumkin. Barglaridan gerseptin (antianachadan iborat ko'krak bezi saratoniga qarshi keng tarqalgan dori), OIV va ebolani davolash uchun protein kokteyllari ishlab chiqarishga kirishilgan. Isroilning biotexnologiya kompaniyasi tamaki biofabrikalarida inson collageni (biriktiruvchi to'qimalarning asosini tashkil etuvchi filamenti oqsilni muvaffaqiyatl ishlab chiqarmoqda.

**TAMAKI FABRIKASIDAN VAKSINA**

Antinalardan tashqari, o'simlikka asos